



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**XORAZM VILOYATINING
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-oktabr*



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **6 231** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabriga nisbatan **730** taga ko'paygan (o'sish sur'ati **113,3** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **79** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **6 152** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **9 509,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning oktabr oylariga nisbatan **105,1** %ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **560,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **90,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 949,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,2** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 863,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,6** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	9509,9	105,1	560,2	90,2	8949,6	106,2
Urganch sh.	2615,8	106,7	371,0	91,5	2244,8	109,7
Xiva sh.	445,9	108,2	20,1	82,9	425,8	109,8
Bog'ot	585,2	103,7	12,0	243,6	573,2	102,4
Gurlan	764,3	104,4	4,2	74,2	760,1	104,6
Qo'shko'pir	492,0	102,2	3,2	17,2	488,8	105,7
Urganch	1131,9	103,8	26,4	79,6	1105,5	104,6
Hazorasp	987,1	102,3	44,9	84,0	942,2	103,4
Tuproqqal'a	225,0	108,5	0,3	98,0	224,7	108,5
Xonqa	605,5	104,4	19,7	54,6	585,8	107,7
Xiva	317,2	109,9	23,4	574,8	293,8	103,3
Shovot	667,5	102,5	23,1	119,1	644,4	102,0
Yangiariq	406,4	109,3	2,1	57,7	404,3	109,8
Yangibozor	266,1	106,8	9,8	82,5	256,2	108,0

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan viloyatning Xiva shahri (**108,2** %), Yangiariq tumani (**109,3** %), Xiva tumani (**109,9** %) va Tuproqqal'a tumani (**108,5** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-oktabr, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan **113,3 %** ni yoki **5 178,9 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar-oktabr oyi)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **27,5 %** bilan **2 615,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqal'a tumanida **2,4 %** bilan **225,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 949,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,2** %ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **94,1** %ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,8** %ga kamaydi va **560,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **5,9** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI ULUSHI (foizda)

Xorazm viloyati	5,9	94,1
Urganch sh.	14,2	85,8
Xiva sh.	4,5	95,5
Bog'ot	2,1	97,9
Gurlan	0,6	99,4
Qo'shko'pir	0,7	99,3
Urganch	2,3	97,7
Hazorasp	4,5	95,5
Tuproqqal'a	0,1	99,9
Xonqa	3,2	96,8
Xiva	7,4	92,6
Shovot	3,5	96,5
Yangiariq	0,5	99,5
Yangibozor	3,7	96,3

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (**99,9 %**), Yangiariq (**99,5 %**), Gurlan (**99,4 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **5,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**14,2 %**), Xiva tumani (**7,4 %**), Hazorasp tumani (**4,5 %**) hamda Xiva shahrida (**4,5 %**) kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimidagi ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Xorazm viloyati	4 825,2	103,3
Urganch sh.	17 300,4	104,3
Xiva sh.	4 569,1	106,2
Bog'ot	3 367,2	101,8
Gurlan	4 918,6	102,7
Qo'shko'pir	2 733,3	100,5
Urganch	5 369,6	101,9
Hazorasp	4 850,5	100,5
Tuproqqal'a	3 852,9	106,0
Xonqa	3 087,6	102,6
Xiva	2 075,9	108,2
Shovot	3 745,7	100,8
Yangiariq	3 339,3	107,3
Yangibozor	2 910,9	105,0

2023- yilning yanvar-oktabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 825,2** ming so'mni (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **103,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**17 300,4** ming so'm), Urganch (**5 369,6** ming so'm) va Gurlan (**4 918,6** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 863,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **876,4** mlrd. so'mni (**100,6 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **986,5** mlrd so'mni tashkil etdi (**102,6 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilyonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1863,0	101,6	876,4	100,6	986,5	102,6
Urganch sh.	327,3	100,5	225,9	116,4	101,4	77,1
Xiva sh.	97,4	142,5	81,6	128,0	15,9	341,1
Bog'ot	239,4	90,4	60,0	109,6	179,4	85,4
Gurlan	275,2	109,8	72,8	97,2	202,4	115,2
Qo'shko'pir	168,0	85,8	95,5	72,1	72,5	114,4
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	178,9	90,3	62,5	56,0	116,4	134,5
Tuproqqal'a	24,9	150,6	7,9	87,0	17,1	226,9
Xonqa	128,2	103,6	88,2	96,0	40,0	125,5
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	296,7	97,8	102,5	112,4	194,1	91,5
Yangiariq	76,1	162,9	47,3	197,2	28,7	126,6
Yangibozor	50,8	127,2	32,2	133,8	18,7	117,3

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **876,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**384,4** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	384,4
	Non va non mahsulotlari	68,6
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	107,0
	Tovuq go'shti	57,3
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	26,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	30,8
	Tuxum	26,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	47,8
	Ziravorlar	15,5
	Tuzlamalar	8,4
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	12,7
	Nooziq-ovqat tovarlari	90,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra, savdo aylanmasi hajmi **986,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **889,4** mlrd.so‘mni, qo‘y va echkilar – **90,8** mlrd. so‘mni, parrandalar – **6,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	452,2
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	279,8
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	157,4
	Qo‘ylar	76,6
	Otlar	0,2
	Echkilar	14,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	3,5
	Tovuqlar	2,6
	Quyionlar	0,16
	Qushlar	0,02

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 432** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan **42** taga ko'paygan va o'sish sur'ati **103,0 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 431** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining ulushi **2,9 %**ni tashkil etib, **275,3** mlrd. so'mga yetdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,9 %**ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **96,7 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	275,3	108,9	9,2	117,2	266,1	108,7
Urganch sh.	136,0	113,0	9,2	117,2	126,8	112,7
Xiva sh.	15,0	117,8			15,0	117,8
Bog'ot	8,7	105,5			8,7	105,5
Gurlan	6,9	106,2			6,9	106,2
Qo'shko'pir	3,7	107,7			3,7	107,7
Urganch	47,4	107,1			47,4	107,1
Hazorasp	12,5	107,8			12,5	107,8
Tuproqqal'a	3,3	56,7			3,3	56,7
Xonqa	5,8	107,4			5,8	107,4
Xiva	6,7	106,5			6,7	106,5
Shovot	16,7	101,6			16,7	101,6
Yangiariq	4,1	107,8			4,1	107,8
Yangibozor	8,5	107,5			8,5	107,5

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- noyabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **5 203,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1** barobarga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 608,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **184,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **2 595,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **2,5 m.**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	5 203,6	100
Urganch sh.	4 912,8	94,4
Xiva sh.	21,8	0,4
Bog'ot	35,6	0,7
Gurlan	11,6	0,2
Qo'shko'pir	10,1	0,2
Urganch	32,8	0,6
Hazorasp	78,1	1,5
Tuproqqal'a	13,5	0,3
Xonqa	60,9	1,2
Xiva	3,5	0,1
Shovot	5,5	0,1
Yangiariq	14,1	0,3
Yangibozor	3,4	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**4 912,8** mlrd. so'm), Hazorasp (**78,1** mlrd. so'm) va Xonqa (**60,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **5 137,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,4** %ga ko‘paydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **4 419,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,9** %ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **86,0** % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA MIKROFIRMALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori hajmga ega yirik korxonalar Urganch tumani (**344,9 mlrd.so‘m**), Urganch shahri (**137,6 mlrd.so‘m**) va Gurlan (**90,0 mlrd.so‘m**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 244** tani tashkil etib, 2022- yil 1- noyabr holatiga nisbatan **296** taga ko‘paygan, o‘shish sur‘ati **115,2 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **32** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 212** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	5137,3	105,4	718,0	84,2	4419,3	109,9
Urganch sh.	2685,7	109,7	137,6	88,7	2548,1	111,1
Xiva sh.	170,4	107,8	0,0	0,0	170,4	108,2
Bog‘ot	62,4	67,1	35,3	51,8	27,2	109,0
Gurlan	233,3	96,0	90,0	79,8	143,3	110,0
Qo‘shko‘pir	63,9	108,1	0,1	211,9	63,8	108,0
Urganch	897,3	122,5	344,9	157,1	552,4	107,6
Hazorasp	80,4	108,0	14,4	99,8	66,0	110,0
Tuproqqal‘a	79,2	107,8	0,1	146,7	79,1	107,8
Xonqa	189,7	50,4	41,4	17,1	148,2	110,1
Xiva	332,7	113,7	16,7	33134,0	316,1	108,0
Shovot	88,3	107,7	0,1	212,6	88,1	107,7
Yangiariq	185,9	105,0	35,7	93,8	150,2	108,1
Yangibozor	68,1	107,9	1,8	108,7	66,3	107,8



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 62-224-65-09**